

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2025 yil 9-yanvar, № 5 (8900) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# MAMLAKAT QUDRATI, SHON-SHARAF VA SADOQAT TIMSOLI





**14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni**



*Dunyoda shunday kasb egalari borki, ularga yozning jaziramasi, qishning ayozi ta’sir ko‘rsatmaydi. Chunki ular elu yurtni qo‘riqlash, xalqimizning tinch, farovon turmush kechirishi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan. Bu sharafli kasb egalari harbiy xizmatchilardir.*

*Yangilanib borayotgan O‘zbekiston sifatida tanilayotgan mamlakatimizda harbiy sohani isloh qilish, Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini tobora oshirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarni davr talabi darajasida yo‘lga qo‘yish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev boshchiligida sohaga qaratilayotgan e’tibor natijasida yangi O‘zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, cheksiz iftixor va sadoqat namunasiga aylandi.

Aniq strategiya va chora-tadbir asosida Qurolli Kuchlarimiz ham moddiy, ham ma’naviy jihatdan takomillashtirib borilmoqda. Ularning jangovar salohiyati yuqori darajaga ko‘tarilib, harbiy qism va poligonlardagi infratuzilma, harbiy xizmatchilarning sharoitlari yanada yaxshilanayotir.

Har yili 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni, Qurolli Kuchlarimiz tashkil topgan kun munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi o‘tkaziladi.

Unda jahonda yuz berayotgan vaziyatlar keng tahlil qilinib, mudofaa tizimi oldiga yangidan-yangi talablar qo‘yilmoqda va ularni hayotga tatbiq etish uchun zaruriy resurslar ajratib kelinmoqda.

➡2

Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi:

# QONUN IJODKORLIGI VA PARLAMENT NAZORATI KUCHAYTIRILADI

*Jahondagi murakkab siyosiy jarayonlar va iqtisodiy beqarorliklarga qaramasdan O‘zbekistonda keng ko‘lamli islohotlar samarali olib borilyapti. 2024-yilda iqtisodiyotimiz barqaror o‘sishda davom etdi, tashqi aloqalar kengayib, xorijiy investitsiyalar oqimi va eksport hajmi sezilarli darajada ortdi. Bu yutuqlar Prezidentimiz rahbarligidagi oqilona siyosatning amaliy natijasi bo‘lib, O‘zbekistonning kelajakka ishonchli qadam tashlayotganining yaqqol dalilidir.*

## Tahlil

Shu o‘rinda milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish maqsadida samarali byudjet, soliq va pul-kredit siyosatini yuritish, raqobat muhitini yaxshilash, davlatning iqtisodiyotga ta’sirini kamaytirish va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini takomillashtirib borish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanganini ta’kidlash joiz. Bundan tashqari, moliya bozorini yanada rivojlantirishda sug‘urta, mikromoliyalash, faktoring xizmatlarini zamon talablari darajasida yo‘lga qo‘yish, ipoteka va qimmatli qog‘ozlar sohalarini yanada taraqqiy ettirishning qonuniy tartibga solish mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

### Mukammal huquqiy hujjatlar – taraqqiyot kafolati

Keyingi yillarda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar dinamikasi byudjet, soliq, pul-kredit siyosati hamda iqtisodiy islohotlarga oid qonunlarni takomillashtirish va ularni zamon talablariga moslashtirishga bo‘lgan ehtiyojni tobora orttirmoqda. Buning yaqqol dalili sifatida Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan qonun ijodkorligi faoliyatida erishilgan natijalarni keltirish mumkin. Yuqoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha qonunchilik asoslarini takomillashtirish borasida qo‘mita jami 36 ta qonun loyihasiga mas’ul bo‘ldi va shulardan 28 tasi qabul qilinib, Senatga yuborildi.

Qo‘mita tomonidan qator yangi va yaxlit qonun loyihalari ustida ish olib borildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi, “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi, “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi va “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi kabi yaxlit qonunlar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, qo‘mita tomonidan Byudjet, Soliq hamda Bojxona kodekslariga, shuningdek, “Davlat boji to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qator qonun loyihalari ko‘rib chiqilib, ular tegishli mutasaddi idoralarning vakillari hamda soha mutaxassislarini jalb etgan holda takomillashtirildi va deputatlar muhokamasiga kiritildi.

Qo‘mita mas’ulligida qabul qilingan qonunlarda barqaror makroiqtisodiy siyosat yuritishning zamonaviy usullarini qo‘llashga oid huquqiy asoslar takomillashtirildi. Byudjet va Soliq kodekslarida bir qator yangi normalar aks ettirilib, soliq solish tizimi soddalashtirildi, ishbilarmonlik va investitsiya faolligini oshirish maqsadida soliq yukini kamaytirishga qaratilgan normalar maromiga yetkazildi.

➡2

Oliy Majlis Senatida

# INVESTITSIYALAR – MAKROIQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH KAFOLATI

*Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasining navbatdagi majlisida “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.*

Unda senatorlar, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining doimiy komissiyalari a’zolari, mutaxassis va ekspertlar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

So‘zga chiqqanlar ta’kidlaganidek, mamlakatimizda qulay investitsiyalar muhitini yaratish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni faol jalb qilish, sohada faoliyat yuritayotgan mahalliy va xorijiy investor hamda tadbirkorlarning huquqlarini kafolatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Investitsiya faoliyatini asossiz tekshiruvlardan himoyalashni kafolatlash, investorlarning huquq-majburiyatlari va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, amaldagi investitsiya qonunchiligini ilg‘or xalqaro standartlar, jumladan, Jahon savdo tashkilotining qoidalariga moslashtirish zarurati bugungi kun talabidir.

➡2

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

# INSON HAYOTI VA SOG‘LIG‘I HAR NARSADAN USTUN

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi tomonidan ba’zi turdagi tamaki mahsulotlari, tamakini hamda nikotinni iste’mol qilish moslamalari, jumladan, elektron sigaretalarning muomalasini taqiqlashga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o‘qishga tayyorlanmoqda.*

Mazkur qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ishchi guruh yig‘ilishida deputatlar tomonidan berilgan takliflar chuqur tahlil qilinib, loyihadagi ayrim normalar bo‘yicha fikr-mulohazalar, muhim takliflar bildirildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan O‘zbekiston Respublikasida nikotinni iste’mol qilish moslamalari, shu jumladan, elektron sigaretalar va ular uchun suyuqliklarning muomalasi (ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish yoki o‘tkazish, O‘zbekiston hududiga olib kirish, olib chiqish) taqiqlanmoqda.

➡2

## Inson qadri

# ENDI UYIMIZ O‘ZIMIZNIKI BO‘LADI

**Hujjatsiz yer uchastkalari va uy-joylarga bo‘lgan huquqlar e’tirof etilayotgani fuqarolarni quvontirmoqda**

Rost, ota-bobongdan qolgan yerda imorat tiklab, yashab yursang-u, uning hujjati bo‘lmasa, alam qiladi-da. Na uyni garovga qo‘yib bo‘ladi, na uni o‘zimning qonuniy hovlim deb atay olasan. O‘g‘ling, qizing voyaga yetib, ularga shu joyni meros qilib qoldirish uchun bir parcha qog‘oz olishning imkoni yo‘q edi. Bu ham mayli, uyni boshqa shaxsga sotish, oila a’zolarini doimiy ro‘yxatga qo‘yish huquqi yo‘q. Uyni ta’mirlash yoki qo‘shimcha qurilish qilish uchun imtiyozli kredit olish, uy-joy jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yiladigan hollarda qonunga muvofiq kompensatsiya talab qilish imkoniyati ham mavjud emasdi. Dardingni kimga aytishni bilmasding.

Bugun mazkur muammolar barham topa boshladi. Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 7-avgustda imzolangan “O‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonunning kuchga kirishi uyi bor-u, hujjati yo‘q odamlar joniga oro kirdi. E’tiborli jihati shundaki, mamlakatimizda 3,6 milliondan ortiq shunday uchastkalar mavjudligi aytilmoqda. Agar 3 million 600 mingdan ziyod yer uchastkalarining har biri o‘rtacha 3-4 nafardan fuqaro va tadbirkorga daxldor bo‘lsa, bu qonun 10 milliondan ziyod aholi muammosini hal qilib, kelgusi hayotiga qonuniy zamin yaratishini his etish qiyin emas.

➡3

# ISHBILARMON YOSHLARGA QANOT BO‘LAYOTGAN MASKAN




*Toshkent shahridagi “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasida oziq-ovqat, qurilish materiallari, elektrotexnika, mashinasozlik va kimyo sanoati kabi yo‘nalishlarda 1 milliard 375 million dollarlik 47 ta loyiha joylashtiriladi. Ularda 12 mingga yaqin ish o‘rinlari ochiladi. Bu yerda yoshlar dastlab kasb-hunarga o‘rgatilib, keyin ishga qabul qilinadi.*

## Ko‘z o‘ngimizdagi o‘zgarishlar

Bu ulkan loyihani amalga oshirish uchun poytaxtimizdagi Yangihayot tumanida 764 gektar yer ajratilgan. Hudud iqtisodiyotida katta o‘ringa ega bo‘lishi kutilayotgan majmuada ayni paytda infratuzilma tarmoqlarini barpo qilish qizg‘in davom etmoqda. Davlatimiz rahbari qarori asosida tashkil qilingan sanoat zonasi qator korxonalar faoliyatini kengaytirish, yangilarini ochish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 23-noyabr kuni majmua tashabbuskorlarining hududda amalga oshirayotgan ishlari bilan tanishib, o‘n ikkita loyiha taqdimotida ishtirok etdi. Prezidentimiz mutasaddilarga har bir sarmoyador bilan yaqindan ishlash, ularga imkoniyatlar yaratib borish, yer maydonlaridan samarali foydalanish, loyihalarni tezlatish, ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha alohida ko‘rsatmalar berdi.

Keyingi yillarda poytaxtimizning har bir tumanida mana shunday iqtisodiy majmualarni barpo etish, bu yerga xorijdan sarmoyadorlar jalb qilish, sanoatni markazdan chetroq hududlarga olib chiqish bo‘yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Toshkent shahri atrofida import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, mahalliylashtirish, milliy brendlarni yaratish, eksport imkoniyatlarini oshirish, savdo nuqtalari ochish, raqamli savdoning qulayliklaridan foydalanish borasidagi ishlar ko‘lami ham kun sayin kengayib bormoqda. Bu esa shahar havosi musaffoligi yo‘lida tashlanayotgan muhim qadamlardan sanaladi.

### Xalqaro brendlar bilan hamkorlik

Mazkur sanoat zonasida xalqaro brendlar bilan hamkorlikda yangi turdagi raqobatbardosh yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Xususan, “DP World”, “JAC Motors”, “Krantas”, “Aces Japan”, “East can solutions”, “EAS” va “Evyap” kabi xorijiy kompaniyalar tomonidan tovarlar yaratish hamda logistika xizmatlari ko‘rsatish tashkil etiladi. Davlat rahbari mutasaddilarga bu yerda sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish loyihalarini yanada kengaytirish, xususan, klaster tizimini joriy etishga alohida e’tibor qaratish kerakligini ta’kidladi. Mas’ullarga loyihalarda mahalliylashtirish va raqamlashtirish, energiya tejamkorligiga ahamiyat qaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Bu kabi olamshumul loyihalarning amalga oshirilishi yurtimizda ham xorijiy investorlar, ham mahalliy tadbirkorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilganidan dalolat beradi. Zero, mamlakatimizda ochiq, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish, investitsiyalar va sanoatni rivojlantirish, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish, mahalliy va xorijiy investorlar uchun jozibador ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan izchil tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

➡3



## INVESTITSIYALAR – MAKROIQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH KAFOLATI

1 Mazkur qonun bilan investitsiyalar va investitsiya faoliyatiga oid asosiy tushunchalar, prinsiplar hamda maqsadlar belgilanmoqda, investitsiya faoliyatining kafolatlari va huquqiy jihatdan himoyasi tartibga solinmoqda. Adolatli va teng huquqli munosabatda bo‘lish, investitsiya faoliyatini asossiz tekshiruvlardan himoya qilish, ochiqlik va oshkoralikni ta’minlash, biznesni boshqarish hamda mablag‘larni erkin tasarruf etishga doir kafolatlar belgilanmoqda.

“Ustuvor investitsiya loyihasi” tushunchasi kiritilib kichik, o‘rta, yirik, strategik investitsiya loyihalariga qonunga muvofiq imtiyozlar berish ko‘zda tutilmoqda. Investitsiyalarni rag‘batlantirish choralari va doirasi kengaytirilmoqda. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonada ustav fondining kamida 15 foizi chet el investitsiyalarini tashkil etishi lozimligi to‘g‘risidagi amaldagi norma 10 foizga tushirilmoqda.

Shuningdek, qo‘mita majlisida “O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi Shartnomani (Dushanbe, 2024-yil 18-aprel) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun ham muhokama qilindi.

Ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yangi, ittifoqchilik darajasiga olib chiqishga qaratilgan mazkur Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 18-aprelda Tojikiston Respublikasiga davlat tashrifi doirasida Dushanbe shahrida imzolangan.

Ushbu hujjat xalqaro huquq normalariga amal qilgan holda mintaqaviy mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish, davlat chegaralarini demarkatsiya qilish bo‘yicha hamkorlikni davom ettirish, suv-energetika sohasida o‘zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish, qonun chiqaruvchi organlar o‘rtasida parlament diplomatiyasini rivojlantirish va o‘zaro aloqalarni mustahkamlash kabi yo‘nalishlardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Iqtisodiy, investitsiyaviy, fan-texnika, madaniyat, ta’lim, sport va turizm sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish, terrorizm, ekstremizm va transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Majlis yakunida qo‘mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# MAMLAKAT QUDRATI, SHON-SHARAF VA SADOQAT TIMSOLI



1 Avvalgi yillarga xos ravishda 2024-yili ham mudofaa tizimida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu bo‘yicha Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisida mas’ullarning axborotlari eshitildi. Tizimda qonun va qarorlar ijrosini ta’minlash borasida bajarilishi zarur bo‘lgan ishlar muhokama qilindi.

Darhaqiqat, qo‘shinlarning doimiy jangovar shayligini ta’minlash maqsadida muntazam ravishda turli tadbirlar tashkil etib kelinmoqda. 2023-yildagiga nisbatan jangovar shaylik tadbirlari 1,5 marotaba ko‘paygan.

Xalqaro maydonda yuz berayotgan tendensiyalarga mos ravishda zamonaviy janglarda yangi foydalanilayotgan uchuvchisiz uchish apparatlarini qo‘llash, ularga qarshi kurashish, okop jangi, radioniqoblanish kabi yangi taktik harakatlar amalda o‘zlashtirildi.

Tizimda kadrlar salohiyatini oshirish borasidagi ishlar faol davom ettirilib, o‘tgan yili Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari radiolokatsiya stansiyasi mutaxassislarini o‘qitish va qayta tayyorlash markazi tashkil qilinib, o‘quv markazlar soni 20 taga yetkazildi. Jangovar mutaxassislik bo‘yicha jami 10 ming nafardan ortiq harbiy xizmatchilar markazlarda o‘qitildi.

Armiyaning jangovar salohiyatini oshirish maqsadida zamonaviy harbiy transport va jangovar samolyotlar, artilleriya hamda zenit raketa majmualari, jangovar va yengil zirhli texnikalar, qurol-aslahalar va turli harbiy-texnika vositalari bilan ta’minlandi. Harbiy xizmatchilar uchun zirhli shlem, zirhli nimchalar hamda uchuvchisiz uchish apparatlari ishlab chiqish yo‘lga qo‘yildi.

2024-yili Mudofaa vazirligi jamoalari qator xalqaro musobaqalarda qatnashib, faxrli o‘rinlarni egalladi. Jumladan, vakillarimiz Pokistonda o‘tkazilgan “Jamoa ruhi”, Turkiyada bo‘lib o‘tgan “Eng ilg‘or mergan jamoa” hamda Janubiy Koreyada tashkil etilgan “1-xalqaro merganlar musobaqasi”da faxrli 1-o‘rinni egalladi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarimiz Buyuk Britaniyada uyushtirilgan “Kembriya patruli”, Rossiyada o‘tkazilgan “Sayan yurishi” musobaqalarida ham yuqori natijalarni qayd etdi.

Vatanparvarlik – bu milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasining mahsuli. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham “Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo‘lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur” ekani haqida ta’kidlagan.

Respublikamiz aholisining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Aynan ular mamlakatimiz ertasi, umidi va ishonchi hisoblanadi. Ayni shu omillar inobatga olingan holda hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni raisligida o‘tgan Xavfsizlik kengashidagi topshiriqqa asosan Mudofaa vazirligiga Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari (103 ta) biriktirildi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi harbiy ta’lim fakultetlarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari malakasini oshirish kurslari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mudofaa vazirligiga biriktirilgan 1 mln. nafar yosh bilan ishlash bo‘yicha 2 547 ta mahallada tadbirlar amalga oshirildi.

Yoshlar bilan o‘tkazilgan yuzma-yuz suhbatlar natijasida 14 711 nafardan ortiq yoshlarning bandligi ta’minlandi. 3 252 nafar yosh kasb-hunarga o‘qitildi va 104 nafariga kreditlar ajratib berildi. 1 833 nafariga moddiy yordam, 1 114 mingdan ortig‘iga subsidiya berilishiga ko‘maklashildi hamda 10 mingdan ziyod yoshlarning boshqa yo‘nalishlardagi muammolari hal etildi.

Qurolli Kuchlar Akademiyasiga va Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtiga biriktirilgan og‘ir toifadagi yoshlar bilan 150 marotaba “Vatanga sodiq yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘ini o‘tkazilib, profilaktik hisobda turgan 22 mingdan ziyod yoshlar turli kasblarga o‘qitildi.

“Jasorat maktabi” harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlari o‘tkazilib, uyushmagan va profilaktik hisobda turgan 4 ming nafarga yaqin yoshlar 10 ta yo‘nalishdagi mutaxassislik bo‘yicha o‘qitildi. “Vatan tayanchi” harbiy-vatanparvarlik harakati 10 mingdan oshiq maktablarda 300 mingdan ziyod o‘quvchi yoshlarni o‘z safiga birlashtirdi.

Harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari va faxriylarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha ham kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ipoteka kreditlari asosida xonadonlar taqdim etilmoqda, harbiy xizmatchilar farzandlariga oliy ta’lim muassasasiga kirishi uchun tavsiyanoma berilmoqda. 2024-yilning o‘zida ana shunday tavsiyanomalar 1 210 nafar harbiy xizmatchining farzandlariga topshirildi. Bundan tashqari, 2 574 nafar harbiy oilasi turli to‘garaklarga jalb etildi, Nafaqadagi 195 nafar harbiy xizmatchi ishga joylashtirildi. Harbiy xizmatchilar rafiqalarining 247 nafari kasb-hunarga o‘qitish markazlarida kasbga yo‘naltirildi.

Qo‘mitamiz tomonidan olib borilgan o‘rganishlar jarayonida ma’lum bo‘ldiki, mudofaa tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning har bir murojaati qonunda belgilangan normalarga muvofiq o‘z vaqtida ko‘rib chiqilmoqda. 2024-yili Mudofaa vazirligiga kelib tushgan 3 200 dan ziyod murojaatlarda aniqlangan 1 400 dan ortiq muammoli masalalar bartaraf etilgan. Bundan tashqari, tibbiy yordamga muhtoj 3 441 nafar fuqaro tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, beg‘araz dori vositalari bilan ta’minlandi.

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari faoliyatini qonunlar bilan tartibga solinishini ta’minlash, bugungi kun talabiga javob bermaydigan, ma’nan eskirgan qonunlarni qayta ko‘rib chiqish, tizimda mavjud kamchiliklarni birgalikda hal qilish borasida ishlarni bundan buyon ham izchil davom ettiradi.

**Qutbiddin BURHONOV,**
**Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi.**



## INSON HAYOTI VA SOG‘LIG‘I HAR NARSADAN USTUN

1 Shuningdek, aylanmasi taqiqlangan chekilmaydigan tamaki mahsulotlari, nikotinni iste’mol qilish moslamalari, jumladan, elektron sigaretalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilanyapti.

Yig‘ilishda deputatlar ushbu mahsulotlarning aholi, ayniqsa, yoshlar orasida iste’mol qilish holatlari ko‘payganiga alohida e’tibor qaratib, bugungi kunda odamlarning hayoti va sog‘lig‘ini, ona tabiatimizni “zamonaviy” nikotin va tamaki mahsulotlaridan himoya qilish dolzarb vazifalardan biri ekanini qayd etdi.

Mazkur qonun loyihasining g‘oyat muhimligiga urg‘u berib, uni yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo‘yicha qator takliflar berishdi. Ularning asosli deb topilganlari e’tiborga olindi va loyiha matnida aks etadigan bo‘ldi.

## BANKLARNI SANATSIYA QILISH VA TUGATISH MEXANIZMLARI BELGILANMOQDA

*Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan “Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi palata yalpi majlisiga ikkinchi o‘qishga kiritish uchun tayyorlanmoqda.*

Ushbu qonun loyihasi palataning 2024-yil 15-oktabr kuni bo‘lib o‘tgan yalpi majlisida birinchi o‘qishda konseptual jihatdan qabul qilingan edi. O‘tgan davrda mas’ul qo‘mita tomonidan loyihani takomiliga yetkazish bo‘yicha bir necha marotaba ishchi guruh yig‘ilishlari, seminarlar o‘tkazildi.

Ularda deputatlar tomonidan berilgan takliflar ishchi guruh a’zolari ishtirokida tahlil qilinib, eng dolzarb va muhim deb topilganlari loyiha matnida aks ettirilgan holda hujjat har tomonlama pishiq-puxta holatga keltirildi.

Qonun loyihasida Markaziy bankning banklarni sanatsiya qilishga doir huquqiy asoslari nazarda tutilmoqda. Shuningdek, uning bankni ixtiyoriy tugatishni amalga oshirishga doir ruxsatnomasini berish shartlari, ixtiyoriy tugatish jarayonida tugatuvchi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar, Markaziy bankka taqdim etib boriladigan hisobotlar hamda tugatish jarayoni ustidan u tomonidan amalga oshiriladigan nazorat qoidalari belgilanyapti.

Shu bilan birga, banklarni sanatsiya qilish maqsadlari va prinsiplari, sanatsiyani moliyalashtirish mexanizmlari ko‘zda tutilmoqda.

Mas’ul qo‘mitada qonun loyihasini takomillashtirish ishlari davom etmoqda.

## TADBIRKOR BIR HUQUQBUZARLIK UCHUN BIR NECHA MAROTABA JAVOBGARLIKKA TORTILMASLIGI KERAK

*Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan tadbirkorlik subyektlari aynan bir huquqbuzarlik uchun bir necha marotaba javobgarlikka tortilishining oldini olishga qaratilgan qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.*

Unda qonun loyihasi atroflicha ko‘rib chiqilib, siyosiy partiyalar fraksiyalari tomonidan berilgan qator takliflar chuqur tahlil qilindi. Ular asosida esa loyihadagi ayrim normalar maromiga yetkazilib, hujjat matni har tomonlama pishiq-puxta holatga keltirildi.

Qonun loyihasida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi va Soliq kodekslariga shaxsning sodir etgan aynan bir huquqbuzarligi uchun bir marotaba javobgarlikka tortilishini ta’minlash va soliq ma’muriyatchiligining yanada takomillashtirilishiga qaratilgan tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Deputat Ruslan Jumamuratov tadbirkor bir huquqbuzarlik uchun bir necha marta javobgarlikka tortilmasligi kerakligini qayd etib, soliq qonunchiligiga kiritilayotgan bu kabi o‘zgartirishlar tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoyasini ta’minlash, mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qilishini ta’kidladi.

Qo‘mita a’zosi Firdavs Qurbonov esa soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni liberallashtirish, ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish, umuman, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoit va muhit yaratish dolzarb masala ekaniga urg‘u berib, loyihani takomiliga yetkazish bo‘yicha o‘z takliflarini berdi.

Qo‘mitada qonun loyihasini takomillashtirish ishlari davom etmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi:

# QONUN IJODKORLIGI VA PARLAMENT NAZORATI KUCHAYTIRILADI

1 Shu bilan birga, soliq to‘lovchilar uchun tashqi shoklar sababli yuzaga keladigan vaqtinchalik xatarlarni talafotsiz boshqarishga qaratilgan moslashuvchan, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni hisobga olish imkonini ta’minlaydigan huquqiy normalar va fiskal qoidalar ishlab chiqildi.

### Nazorat-tahlil faoliyatida muhim yondashuv

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, parlament quyi palatasi deputatlarining byudjet mablag‘lari natijadorligi ustidan nazorat vazifasi ularning mutlaq vakolatlaridan biri sifatida belgilangan. O‘tgan yil davomida qo‘mita tomonidan qonunlar va qonunosti hujjatlari ijrosini ta’minlash hamda parlament nazoratini amalga oshirish doirasida qator tadbirlar tashkil etildi. Bu borada umumiy 16 ta tadbir o‘tkazilgan bo‘lib, ulardan bittasi qonun hujjatlarining ijrosini tahlil qilishga, 15 tasi esa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining axborotini eshitishga qaratildi.

Qo‘mita eshituvlari davomida Iqtisodiyot va moliya, Investitsiyalar, sanoat va savdo hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi kabi muhim tashkilotlar rahbarlarining hisobotlari eshitildi.

Shuningdek, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining ijrosi ustidan parlament nazoratini tizimli amalga oshirish, byudjet mablag‘lari samaradorligini va ushbu jarayonning shaffofligini ta’minlash borasida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilmoqda. Ushbu maqsadda 2021-yil 30-dekabrda Prezidentimizning tegishli qarori bilan muhim parlament nazorati mexanizmi joriy etilgan edi. Bu mexanizm amaliyotda Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘larning samaradorligini parlament tomonidan monitoring qilishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Mazkur qarorga muvofiq Vazirlar Mahkamasi tomonidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchi vazirlik va idoralarning rivojlantirish dasturlarida belgilangan maqsad indikatorlarining bajarilishi bo‘yicha choraklik axborotlar Qonunchilik palatasiga taqdim qilib borilmoqda. Ushbu axborotlarda ajratilgan byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlari bilan birgalikda taqdim etiladi.

Bu jarayonda qo‘mitamiz deputatlarga sarflangan mablag‘lar samaradorligini tahlil qilish, tegishli vazirlik va idoralarga asosli fikr hamda takliflar tayyorlashda uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatmoqda.

Ushbu mexanizmning joriy qilinishi parlament nazorati ta’sirchanligini yangi bosqichga olib chiqib, davlat mablag‘laridan samarali foydalanishga va rivojlanish dasturlarining maqsadli indikatorlariga erishishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Qo‘mita tomonidan “Natijaga yo‘naltirilgan byudjet” tizimining samaradorligi va davlat xarajatlarining shaffofligi hamda natijadorligi bo‘yicha bir qancha eshituvlar tashkil qilindi. Ushbu nazorat tadbirlarida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda boshqa tegishli vazirlik, idoralar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi ekspertlar ishtirokida muhokamalardan o‘tkazildi.

Nazorat-tahlil tadbirlarida, shuningdek, Hukumat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining ijrosi ham qamrab olinmoqda. Bu parlament nazoratining ta’sirchanligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilyapti. Chunki ushbu tadbirlarda dasturlar ijrosiga ta’sir etuvchi omillar chuqur tahlil qilinadi, aniqlangan kamchiliklar va muammolar yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqiladi.

### Jamoatchilik bilan muloqot

Qo‘mita a’zolari 2024-yilda iqtisodiyotni isloh qilish hamda aholi farovonligini ta’minlash borasida saylovchilar ko‘targan muammolarni o‘rganish va ularning yechimini topishga jiddiy yondashdi. O‘rganish jarayonida aniqlangan kamchiliklarga mutasaddilarning e’tiborini qaratgan holda ularni hal etishga ustuvor ahamiyat berildi. Qo‘mita tashabbusi bilan mansabdor shaxslarga saylovchilarning qonuniy huquq hamda manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha bir nechta parlament va deputat so‘rovlari yuborildi.

Qo‘mita nomiga 2024-yilda jami 256 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning 80 tasi ijobiy hal etildi. Murojaatlarda qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha 12 ta taklif bildirildi.

Faoliyatimiz shaffofligini ta’minlash va aholining bu boradagi xabardorligini oshirish maqsadida qo‘mita ishiga oid ma’lumot va axborotlar OAVda 617 marotaba yoritildi.

### Istiqboldagi rejalar va dolzarb vazifalar

Prezidentimizning Oliy Majlis palatalarining 2024-yil 18 – 20-noyabrda bo‘lib o‘tgan majlislaridagi nutqlarida iqtisodiy islohotlarga oid bir qator muhim yo‘nalish va vazifalar belgilab berildi. Shulardan kelib chiqib 2025-yilda Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi qonun ijodkorligi hamda nazorat-tahlil faoliyatida bir qancha masalalarga alohida e’tibor qaratmoqda.

Eng avvalo, qonun loyihalari sifatini oshirish bo‘yicha aniq choralar ko‘zda tutilgan. Ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan va aniq ijro mexanizmlariga ega bo‘lgan qonun loyihalarini tayyorlashda tashabbuskorlar bilan hamkorlikda ish olib borish lozim bo‘ladi. Bundan tashqari, parlament nazorati faqat ijtimoiy soha bilan cheklanib qolmasligi uchun vazirlik, idoralarning rivojlantirish dasturlari ijrosi muhokamalarida iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Qo‘mitaning qonun ijodkorligi va nazorat-tahlil faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishda mamlakatdagi salohiyatli tahlil markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari bilan muloqotni kuchaytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

Davlatimiz rahbari parlamentdagi nutqlarida qonunlar, avvalo, xalqimizning og‘irini yengillashtirishga qaratilishi kerakligini ta’kidlagan edi. Shundan kelib chiqib bir qator tashabbusli qonun loyihalari ustida ish olib borish vazifa qilib olingan. Xususan, fuqarolarning uy-joy qurilishiga jalb etilgan mablag‘larini kafolatli himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini joriy etish, garov munosabatlarida kreditorlarning talablarini qondirish tartibini huquqiy jihatdan takomillashtirish kabi loyihalar ustida ish olib boriladi.

Ayni chog‘da moliyaviy xizmat sohasi haligacha eskicha qoidalar bilan tartibga solinayotgani Prezidentimiz tomonidan o‘rinli tanqid qilingan edi. Shundan kelib chiqib moliya xizmatlaridagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan loyihalar ustida ish olib boriladi. Xususan, franchayzing, faktoring xizmatlari va kapital bozorini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan.

Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib ilg‘or bank tizimini joriy etish va sohada raqobat muhitini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalarida tijorat banklari ishtirokini kengaytirish, islomiy bank xizmatlarini joriy qilishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi. Ushbu jarayonda banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, banklar faoliyatida to‘lovga qobiliyatsizlikning oldini olish maqsadida sanatsiya qilish mexanizmlarini joriy etishga alohida e’tibor qaratiladi.

Parlament quyi palatasi oldiga “g‘oyalar generatori”ga aylanish vazifasi qo‘yilganini hisobga olib qo‘mita iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiyotda erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, Davlat byudjeti tizimini isloh etish, bank-moliya sohasini liberallashtirishning huquqiy poydevorini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratadi.

Qo‘mita o‘z faoliyatida iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash, aholi manfaatlarini himoyalash, qonunchilikni takomillashtirish hamda jamoatchilik bilan muloqotni yanada kuchaytirish yo‘nalishlarida faol qadamlar tashlashni o‘z oldiga reja qilgan. Ularning amalga oshirilishi mamlakat taraqqiyoti va aholi farovonligiga xizmat qiladi.

**Sharofiddin NAZAROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi.**

## BYUDJET VA IQTISODIY MASALALAR QO‘MITASI MAS’ULLIGIDA 2024 YILDA QABUL QILINGAN QONUNLAR



“Eurasia Magazine” jurnali:

# VENGRIYA VA O‘ZBEKISTON O‘RTASIDAGI AMALIY HAMKORLIK – KO‘HNA QIT’A BILAN BOG‘LOVCHI BO‘G‘IN

*Vengriyaning “Eurasia Magazine” jurnalining O‘zbekistonga bag‘ishlangan ingliz va venger tillaridagi maxsus soni chiqdi.*

*Mazkur nashrda Vengriya – O‘zbekiston munosabatlarining serqirraligi va mamlakatimizning xalqaro maydondagi ahamiyatini ochib beruvchi maqolalar o‘rin oldi. Jumladan, O‘zbekiston elchisi Oybek Shaxavdinovning “Dinamik hamkorlik va strategik sheriklik” hamda jurnal bosh muharriri va Yevroosiyo markazi direktori Levente Xorvatning “Yevropani Ipak yo‘lida birlashtirib” sarlavhali maqolalari joy olgan.*

**Biz va jahon**




“Dinamik hamkorlik va strategik sheriklik” maqolasida muallif ikki mamlakatning tarixiy aloqalarini e’tirof etib, taniqli venger sharqshunoslari Armin Vamberi va Aurel Steynni tilga oladi hamda ularning tadqiqotlari madaniy aloqalarni mustahkamlashga yordam bergani haqida so‘z yuritadi. Maqolada, shuningdek, mamlakatlar o‘rtasida oliy darajadagi tashriflarning faol almashinuvi, savdo hajmi va qo‘shma investitsiya loyihalari, jumladan, Vengriyaning “OTP Bank” kompaniyasining O‘zbekiston moliya sektoridagi ishtirokiga e’tibor qaratiladi.

“Yevropani Ipak yo‘lida birlashtirib” maqolasida O‘zbekistonning Sharq va G‘arb chorrahasida strategik joylashuvi, Buyuk Ipak yo‘li yo‘nalishlarini tiklashdagi ahamiyati hamda demokratik islohotlar borasidagi salmoqli yutuqlari qayd etiladi. Energetika sohasidagi yangi tashabbuslar va “Yashil energetika yo‘lagi” loyihasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Jurnalda, shuningdek, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, tuproq unumdorligini oshirish, boshqaruv tizimini isloh qilish natijasida erishilayotgan muvaffaqiyatlar bayon etiladi.

Bundan tashqari, iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay biznes muhit yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar haqida so‘z yuritiladi.

Jurnalda O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi asosiy hamkor sifatidagi ahamiyati, uning Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashdagi muhim o‘rni urg‘ulangan.

Taqdim etilgan materiallar o‘quvchilarni boy madaniy meros, zamonaviy islohotlar va mamlakatni rivojlantirish istiqbollari bilan tanishtiradi. O‘z navbatida, bu O‘zbekistonning Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatidagi o‘ziga xos mavqeini namoyish etadi, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy modernizatsiya yo‘lida, xalqaro hamkorlik va madaniy almashinuvni kengaytirish borasidagi yutuqlaridan dalolatdir. Ushbu nashrning maxsus soni Vengriyada O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishning yuqoriligi va mamlakatning xalqaro maydondagi yutuqlarini e’tirof etadi.

Jurnalda ikki mamlakat o‘rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalar, strategik sheriklikni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlik, investitsiya loyihalari va madaniy almashinuvlarga alohida e’tibor qaratilgan. Unda demokratik islohotlar, ekologik barqarorlik va O‘zbekistonning muhim sohalarda erishgan yutuqlarining asosiy jihatlari yoritilgan.

**“Dunyo” AA.**
**Budapesht**

# ENDI UYIMIZ O‘ZIMIZNIKI BO‘LADI



Qonun 2024-yilning 8-noyabridan kuchga kirdi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taklifiga ko‘ra, 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan reja-jadval tasdiqlandi. Unga muvofiq 2024-2025-yillarda 3 878 ta mahalladagi 2 250 mingdan ziyod obyektlarda xatlov o‘tkaziladi. Qonunning mohiyati ijrochilarga yetkazilishini ta’minlash maqsadida o‘quv-seminarlar tashkil etildi hamda hujjatning ahamiyatini aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borildi.

Xatlov jarayonini raqamlashtirish maqsadida Kadastr agentligi tomonidan “E’tirof” axborot tizimi ishlab chiqildi. O‘z navbatida, “E’tirof” axborot tizimi “UZKAD” tizimiga integratsiya qilinib, xatlov jarayonida shakllantirilgan ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. Davlat organlari mas’ullari uchun axborot tizimidan foydalanish bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Xatlovga kadastr idoralarining 4,5 mingdan ortiq mutaxassislari jalb qilindi va reja-jadvalga muvofiq xatlov ishlari faol olib borilmoqda.

– Viloyatimizda Kadastr agentligi tomonidan tasdiqlangan reja-jadvalga asosan xatlov ishlari boshlab yuborildi, – deydi Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Farhod Madaminov. – Hududimizda jami 1 062 ta mahalla fuqarolar yig‘inidan 2024-yil yakuniga qadar 68 tasida xatlov ishlari olib borilishi belgilangan. 2025-yilda esa 306 mahallada xatlov o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Xatlov jarayonlarida Kadastr agentligi hamda Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmalarida viloyat shtabi tuzilib, joylarda olib borilayotgan ishlar kunlik tahlil qilib borilyapti. Sohaning 500 dan ziyod malakali mutaxassislari xatlov jarayonlarida faol ish olib bormoqda. Aholining o‘z mahallalarida qachon xatlov ishlari boshlanishini bilishi uchun “KADASTR.UZ” sayti orqali ma’lumotlar berib borilmoqda.

Qonunda huquqlarni e’tirof etishning asosiy shartlari aniq belgilangan bugun soha xodimlari uchun qo‘l kelmoqda. Masalan, xatlov jarayonida yer boshqa shaxsga ajratilmagan yoki auksionga chiqarilmagan bo‘lishi, yer bo‘yicha nizo bo‘lmasligi, bosh reja talablariga zid amalga oshirilmagan bo‘lishi kabi omillar hisobga olinmoqda.

Huquqlarni e’tirof etish hududlar bo‘yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga taalluqli ma’lumotlarni va hujjatlarni kelishish Kadastr agentligining avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali uddalanyapti. Bu tizimga 15 ta vakolatli tashkilotning ham tegishli ma’lumotlari kiritilayotir.

To‘plangan hujjatlarning to‘liqligi va qonuniyligi viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tekshirib chiqilmoqda. Ularning natijalari mahalla burchaklari, Kadastr agentligining sayti orqali jamoatchilik e’tiboriga havola etilyapti. Ijobiy xulosa qabul qilingan fuqarolarga SMS-xabarnoma yuboriladi. U asosida bir martalik to‘lovni amalga oshirganlarga har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan huquqlar e’tirof etiladi.

Bugungi kunga qadar mamlakatimizda 575 ta mahallada jami 116 198 ta obyektda xatlov ishlari yakunlandi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025-yil yakuniga qadar 700 mingdan ziyod fuqarolarning uy-joylariga bo‘lgan huquqlari e’tirof etilishi masalasi ko‘rib chiqiladi. Zero, fuqarolarga qonuniy uy-joylarda emin-erkin yashash huquqi berilayotgani yangi O‘zbekistonni barpo qilish yo‘lidagi izchil islohotlarning ijobiy samarasidir.

**Faxriddin BOZOROV**
**(“Xalq so‘zi”).**

## YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

### Askar ota-onalariga ehtirom

*Toshkent harbiy okrugi harbiy xizmatchilari va Toshkent garnizoni harbiy qism askarlari ishtirokida “Askar ota-onalarini sharaflaymiz!” nomli videouchrashuv bo‘lib o‘tdi.*



Toshkent harbiy okrugi matbuot xizmati xabariga ko‘ra, “Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!” shiori ostida o‘tkazilgan ushbu tadbirga Jamoatchilik kengashi a’zolari, Qurolli Kuchlar faxriylari taklif etildi.

Tadbir davomida ota-onalar farzandlari bilan teleko‘prik orqali diydorlashish bilan bir qatorda, o‘z dilbandiga ezgu niyatlar tilash imkoniga ega bo‘ldi.

Videomuloqotning madaniy-ma’rifiy qismida onalarni ulug‘lovchi she’r, milliy armiyamiz madh etilgan ta’rif barchaga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

Yakunda bilimi, namunali xulqi va harbiy qismdagi faolligi bilan ajralib turgan askarlarning ota-onalari okrug qo‘mondonligining tashakkurnomalari bilan taqdirlandi.

### Ochiq kutubxonalar xizmatingizda

*“O‘zbekneftgaz” AJ markaziy apparati binosi oldida ixcham “ochiq kutubxona”lar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan edi. Ular piyodalar yo‘laklari chetida joylashgan bo‘lib, yo‘lovchilar barcha kitob, gazeta va jurnallardan erkin tarzda foydalanishi mumkin. Mutolaa qilib bo‘lingan adabiyotlar esa javonga qaytib qo‘yiladi.*



Kitob javonlaridan dastlab yuzdan ortiq badiiy, tarixiy, huquqiy mavzudagi adabiyotlar, bolalar kitoblari hamda mahalliy gazetalar o‘rin olgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib u 11 mingdan ortiq kitoblar bilan boyitildi.

Mazkur loyiha aholi o‘rtasida kitoblar almashinuvini kengaytirish va kitobxonlikni yanada kengroq targ‘ib qilish imkonini bermoqda.

### “Dolzarb 10 kunlik”: hudud 135 ming tonna chiqindidan tozalandi



*O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tashabbusi bilan 2024-yilning 25-dekabridan 2025-yilning 5-yanvariga qadar mamlakatimizning barcha hududida “Dolzarb 10 kunlik” tozalik tadbirlari o‘tkazildi.*

Ma’lumotlarga ko‘ra, tadbir davomida 800 ming 263 ta jamoat joyi, mahallalar va markaziy ko‘chalar obod qilindi. Hududlar jami 135 ming 200 tonna chiqindidan tozalandi.

Atrof-muhit ozodaligi, ekologik mas’uliyat hamda yurtdoshlarimizda tabiatga daxldorlik hissi ortishiga qaratilgan ushbu loyiha doirasida hududda Butunjahon tozalik kuni munosabati bilan “Hayot uchun joy ajrating” shiori ostida ommaviy ekoaksiya ham tashkil etildi.

**“Xalq so‘zi”.**

O‘zbekiston Milliy axborot agentligi jamoasi agentlikning Media markazi boshlig‘i Jamoliddin Bobojonovga otasi
**Abiyir BOBOJONOVning**
vafoti munosabati bilan chuqur ta’ziya izhor etadi.

# ISHBILARMON YOSHLARGA QANOT BO‘LAYOTGAN MASKAN



Xitoyning “CAMC Engineering” kompaniyasi hamkorligida “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasini boshqarish, investorlarni jalb qilish va infratuzilma obyektlarini barpo etish ko‘zda tutilgan. “JAC Motors” kompaniyasi tijorat avtotransport vositalarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi. 135 million dollarlik bu loyiha natijasida 2 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi. Yaponiyaning “Aces Japan” kompaniyasi bilan hamkorlikda ofis uchun o‘rindiq va mebellar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilib, yana 100 kishining bandligi ta’minlanadi.

Birlashgan Arab Amirliklarining “DP World” kompaniyasi bilan esa transport-logistika markazini tashkil etish bo‘yicha ishlar boshlangan. Bu yerda yaratiladigan mahsulotlarning qo‘shimcha qiymat zanjiri ancha yuqori bo‘ladi. Transport-logistika markazi og‘irni yengil, uzoqni yaqin qiladi.

Xususan, “CAMC Engineering” kompaniyasi qurilayotgan sanoat majmuasida ishlab chiqaruvchi sifatida emas, balki maxsus zona quruvchisi va shu maydonning asosiy investorlaridan hamda buning ekspluatatsiya jarayonlarini amalga oshiradigan korxonalardan biri sanaladi.

– Injiniring loyihalashtirish bo‘yicha eng ilg‘or kompaniyalardan birimiz, – deydi “CAMC Engineering” kompaniyasining O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Go Szisze. – Sanoat parkining umumiy loyihasini amalga oshiryapmiz. Ya’ni uning infratuzilmasi, yo‘nalishlarni lotlarga joylashtirish va umumiy ko‘rinishni ishlab chiqyapmiz. Xitoydan, asosan, O‘zbekistondagi eng tez rivojlanayotgan 4 ta katta yo‘nalishdagi tadbirkorlarni sanoat parkiga jalb qilmoqchimiz. Bular – oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, avtomobilsozlik, tekstil tarmog‘i, elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish. 40 dan ortiq korxonalar maxsus sanoat zonasidan joy olish fikrini bildirgan. Hozir “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasini boshqarish ma’muriyati bilan birga “Kams kanstrakshin” qo‘shma korxonasini tuzish bo‘yicha ishlar jadal ketmoqda.

**Istiqbolli loyihalar tanlab olinadi**

Ahamiyatlisi, sanoat zonasi davlat tomonidan shakllantirilmoqda, boshqaruv tashqi hamkorga berilgan. Eng istiqbolli loyihalar tanlab olinyapti, loyihalarning ekologiyaga ta’siri ham nazardan chetda qolmayapti. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari uchun alohida soliq, bojxona imtiyozlari va boshqa preferensiyalar tatbiq etiladi.

Bu yerdagi sharoitlar bilan tanishar ekanmiz, bizni kuzatib turgan investorlar o‘z loyihalari bilan tanishtira ketdi.

– “JAC Motors” avtomobillarimiz haqida ko‘pchilik tasavvurga ega bo‘lsa kerak, – deydi “JAC Motors” kompaniyasining Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha direktori Yu An. – Yengil avtoulovlardan tortib, og‘ir texnikalargacha ishlab chiqaramiz. Korxonamiz o‘tgan asrning 60-yillarida ochilgan. Hozir dunyoning juda ko‘plab davlatlarida o‘z zavodlarimizni ochganmiz. Ushbu sanoat zonasida 30 gektar maydonda zavodimizni qurmoqchimiz. Kichik mikroavtobuslar ishlab chiqariladi. Ko‘rsatkichimiz yiliga taxminan 50 mingta avtoulovni tashkil qiladi. Buning uchun 35 million dollar miqdorida sarmoya kiritayapmiz.



– O‘zbekistonda geologiya va qazish sohasida kerak bo‘ladigan quvurlar ishlab chiqarishni rejalashtirganmiz, – deydi “Standart drilling” kompaniyasi rahbari Alisher Rizayev. – Buning uchun 5 million dollarlik investitsiya kiritish mo‘ljallangan. Agar ushbu biznes-rejamiz amalga oshsa, 50 nafardan ortiq yigit-qizlar ish bilan ta’minlanadi.

**Nazariya va amaliyot uyg‘unligi – muvaffaqiyat garovi**

Darvoqe, har qanday soha va loyihaning istiqbolini yuqori bilim hamda malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar ta’minlaydi. Shuni hisobga olgan holda, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasi va “Yangihayot industrial texnoparki” hududida dual ta’limga asoslangan o‘quv markazini tashkil etish rejalashtirilgan. Ushbu markazda talabgorlar birinchi bosqichda qurilish sohasidagi zarur kasblarga o‘qitiladi. Ular o‘qish bilan birga sanoat zonasida olib borilayotgan qurilish jarayonlarida ham ishtirok etadi. Ikkinchi bosqichda sanoat zonasidagi loyihalar ishga tushgach, ish beruvchilarning buyurtmasi asosida zarur mutaxassislar tayyorlash uchun talabgorlar jalb qilinadi.

Xususan, avtochilangar, operator, mebelchi, yuk mashinalari haydovchisi, logistika operatori, tokar-frezerchi, qadoqlovchi va qandolatchi kasblariga o‘quv kurslari dual ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Kurslar ish beruvchilar buyurtmasi asosida tashkil etiladi. Egallangan nazariy bilimlar ish jarayonida, amaliyotda mustahkamlanadi, ularga tajribali murabbiylar mas’ul qilinadi.

Yagona milliy mehnat tizimi dasturiy apparat kompleksida har bir ish beruvchi va loyiha tashabbuskori uchun o‘rta bo‘g‘in malakali kadrlarga elektron buyurtmalar berish imkoniyati yaratiladi. Mazkur platformaga xorijiy ish beruvchilar buyurtmalari ham integratsiya qilinadi hamda kasbiy ko‘nikmalar markazlari uchun yagona buyurtmalar portfeli shakllantirib boriladi. Bitiruvchilarga xalqaro sertifikat ham beriladi. Natijada sanoat korxonalari uchun shu yerning o‘zida malakali mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi.

...Poytaxt iqtisodiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘ladigan mazkur sanoat zonasida qizg‘in ish jarayoni davom etmoqda. Quvonarli jihati shundaki, bu loyihaga yosh biznesmenlarning va ishlash istagidagi o‘g‘il-qizlarning qiziqishi juda yuqori. Bu qiziqish alaloqibat maqsadga, maqsad esa ezgu amallarga boshlaydi. Zero, yurt taraqqiyoti yo‘lida boshlangan ulkan loyihalarda yoshlarning faol ishtirok etishi biz barpo qilayotgan yangi O‘zbekistonning buguni farovon, ertasi yanada nurafshon bo‘lishiga ishonchimizni mustahkamlaydi.

**Aziz NORQULOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

**O‘tgan yili 7255 ta konsert-tomosha tadbiri tashkil etilib, ularga 10 milliondan ortiq tomoshabinlar qamrab olindi.**

# SOMONIYLAR DAVRIDA HARBIY BOSHQARUV

*O‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan sulolalardan sanalmish somoniylar hukmronligi qanday tartibga rioya qilganini bugungi zamondoshimiz bilib qo‘ygani yaxshi. O‘sha davrning (892 – 1005) siyosiy boshqaruv tizimi o‘z ilg‘orligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, davlatni Nasr boshqargan pallada (914 – 943) kishilik tarixida yangilik hisoblanmish markazlashgan boshqaruv joriy etilgan. Bu tizim asosini oliy dargoh va devon (vazirlik)lar majmui tashkil qilgan. Ular to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishlari uchun Nasr buyrug‘iga ko‘ra poytaxt Buxorodagi Registonda oliy hukmdor va o‘nta vazir uchun alohida-alohida binolar qurilgan edi.*

## Moziydan sado

Devonlar, ya’ni hukumat tizimi tizimlashtirilgan. Bosh vazir devoni butun ijroiya hokimiyat, jumladan, to‘qqiz devon – vazirlik ustidan nazoratni amalga oshirgan.

Davlatda soqchilar boshlig‘i devoni faoliyati alohida e’tiborga molik. Ushbu tuzilma maxsus saralangan harbiy qismlarga boshchilik qilib, ularning tayyorgarligi, tartib-intizomi, oziq-ovqati, umuman, xo‘jalik ta’minoti, maoshi masalalariga mas’ul edi. Masalan, maosh uch-to‘rt oyda bir to‘lab turilgan.

Har bir devonning joylarda bo‘limlari bor edi. Ular markazdagi o‘z devonlaridan tashqari mahalliy hokimlarga ham bo‘ysunib, mahalliy boshqaruv idoralari bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatgan. Bundan xat-xabarlar xizmati devoni mustasno hisoblanib, ularning mahalliy bo‘limlari faqat poytaxtga hisobot bergan, xolos. Zero, ular mahalliy hokimlar, mansabdorlar ustidan pinhona nazorat olib borgan.

Soqchilar boshlig‘i devoni – harbiy vazirlik yuqorida urg‘ulangan vazifalaridan tashqari bozorlar, ko‘chalar va jamoat binolaridagi tartibni nazorat qilgan. Uning rahbari bosh vazirga emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri amirga bo‘ysungan va shaharning barcha xavfsizlik kuchlarini boshqarish vakolatiga ega bo‘lgan.

Bu davrdagi yana bir muhim harbiy lavozim qo‘shin boshlig‘i sanalib, ma’lum bir hududning qurolli kuchlariga rahbarlik vazifasini bajargan. Odatda, bu lavozim majburiyatlari hudud voliysi (hokim) ga biriktirilgan.

Somoniylar davrida milliy qo‘shinimiz uch asosiy turdan iborat edi. Birinchisi – davlatning asosiy harbiy kuchini tashkil etgan va jangovar harakatlarda muhim rol o‘ynagan otliqlar. Ikkinchisi – qattiq intizom va maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan piyodalar. Uchinchisi, hukmdor nazorati ostida faoliyat yuritgan, hozirgi tushunchada milliy gvardiyaga to‘g‘ri keladigan maxsus harbiy qism – g‘ulomlar guruhi.

Asosan, turkiylardan saralab olingan g‘ulomlar guruhi oliy hukmdorning eng ishonchli kuchi hisoblanib, saroydagi yuqori lavozimlarni egallash va mustaqil hududlarni boshqarish imkoniyatiga ega edi. Somoniylar davrida davlat barqarorligini mustahkam tutishda mazkur tuzilmaning o‘rni katta bo‘lgan.

Yollanma askarlardan iborat muntazam qo‘shin tuzishga qaratilgan ilk urinish Ismoil (892 – 907) davrida boshlangan bo‘lib, uning tarkibi ham, asosan, turkiy g‘ulomlardan iborat edi. Ular maxsus harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan hamda o‘ziga xos jangovar bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan. Har bir askar xizmat davomida qat’iy va tizimli tarzda belgilangan bosqichlardan o‘tishi kerak edi. Chunonchi, birinchi yil askar zandanachi matosidan tikilgan kiyim kiyib, piyoda sifatida xizmat qilgan. Ikkinchi yili unga ot, oddiy yugan va kamar, uchinchi yil esa beliga taqib yuradigan qorajur qilichi berilgan. Faqat beshinchi yildagina unga yaxshi egar, yulduz belgili yugan, doroyi matosidan tikilgan kiyim, gurzi loyiq ko‘rilgan. Oltinchi yili qimmatbaho kiyim taqdim etilib, agar o‘tgan yillar davomida namunali xizmat qilgan bo‘lsa, yettinchi yili unga o‘n olti qoziqli bosh-oyoq chodir, guli kumush ipdan tikilgan namad bosh kiyim, visoqboshi unvoni va uchta g‘ulom beriladi.

Xizmat davomida yuksak intizom va qobiliyat ko‘rsatgan g‘ulomlar asta-sekin yuqori martabalarga ega bo‘lib borgan. Ular xaylboshi (otliqlar boshlig‘i) va hojib kabi lavozimlarga tayinlanib, davlat boshqaruvida ham faol ishtirok etgan.

Urush maydonida qo‘shinning joylashuvi hamda qo‘llangan harbiy usullar bo‘yicha ham qiziqarli ma’lumotlar bor. Masalan, qo‘shinning oldingi saf, orqa saf, ikki qanot va asosiy qismdan iborat tuzilishi besh ustun deyilgan. Oldingi safda dushman bilan birinchi bo‘lib to‘qnashuvchi, orqa safda qo‘shinning orqa tomonini himoya qiluvchi, ikki qanotda qo‘shinning yon tomonlarini muhofaza etuvchi, o‘rtada bosh qo‘shin qismlari joylashtirilgan. Ushbu besh jangovar qismdan tashqari orqa safning ikki tomonida qo‘shimcha qismlar ham bo‘lib, ular qanot vazifasini bajargan.

Ko‘rinib turganidek, somoniylar davrida qo‘shinning yetti qismli murakkab jangovar tuzilmasi bo‘lgan. Ularning har biriga amirlar boshchilik qilgan va umumiy boshqaruvni oliy hukmdor olib borgan.

Kardays usuli otliq qo‘shinlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujumiga asoslangan bo‘lib, unda otliqlar bir yoki bir nechta qatorga saf tortib, dushman tomon yopirilgan. Shu yo‘l bilan yov saflarini yorib o‘tish, talato‘pni keltirib chiqarish va tezkorlik bilan zarba berishga erishilgan.

Yana bir qiziq jihati shundaki, so‘z ketayotgan davrda urush maydonida fillardan ham foydalanilgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Ushbu holat davlatning o‘sha kezlardagi janubiy chegaralari Hindistonga yaqinligi bilan izohlanadi, albatta.

Demak, o‘ninchi yuzyillikda harbiy boshqaruv yuqori darajada yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, uning ham huquqiy, ham iqtisodiy asoslari yaratilgan edi. Ushbu tajriba mamlakatni boshqargan keyingi sulolalar, qo‘shni davlatlar uchun ham o‘ziga xos o‘rnak bo‘lib xizmat qilganini saljuqiylar davrining atoqli arbobi, bosh vazir lavozimida ishlagan Nizomulmulk (1018 – 1092) o‘zining “Siyosatnoma” asarida alohida urg‘ulab o‘tgani ham bejiz emas.

**Ulug‘bek OLIMOV,**
**O‘zFA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi.**

Yangi iqtisodiy paradigma:

# INNOVATSIYALAR RUHIYATI

*Bugungi jadal taraqqiyot, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi O‘zbekistonning innovatsion muhitini yanada kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Albatta, bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, oliy o‘quv yurtlarida innovatsion iqtisodiyot bo‘yicha ta’lim dasturlarini kengaytirish, tadqiqotlarni ko‘paytirish, jamiyatda sohaga oid bilimlar, yangiliklarni targ‘ib qilish muhim o‘rin tutadi.*

## Tadqiqot




G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan chop etilgan iqtisodiyot fanlari doktori, professor Akram Hoshimovning “Innovatsion iqtisodiyot” darsligi ana shu ezgu maqsadga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Kitob biznes g‘oya, ishlanma hamda innovatsiyalarning mohiyati va xususiyatini tushunish, ularni tasniflash, zamonaviy biznes modellarini hayotga tatbiq etish, intellektual mulk va uni muhofaza qilish, tijoratlashtirish nazariyalarini, bu boradagi ilg‘or xorijiy tajribalarni keng kitobxonlar ommasiga, soha talabalari va tadqiqotchilariga yetkazishda asqatishi muqarrar.

Yangi darslik haqida so‘z ketar ekan, avvalo, keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilgan transformatsiya jarayonlarini ko‘z oldimizga keltirish joiz. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda izchil rivojlanib borayotgan bozor munosabatlarini e’tiborga olgan holda iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish hayotga tatbiq etilayotgan keng ko‘lamli tub o‘zgarishlarning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Bu jarayonga nafaqat real sektor korxonalari, balki yangi, ilg‘or texnologiyalarni yaratayotgan olimlar, konstruktorlar, ishlab chiqarishda mehnat qilayotgan ixtirochi-mutaxassislar ham bevosita jalb etilmoqda.

“Innovatsion iqtisodiyot” darsligi Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida istiqbolli innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar bandligini rag‘batlantirish uchun innovatsiyalar hamda ularni tijoratlashtirishda, to‘rtinchi sanoat inqilobining asosiy talablarini ilmiy asoslangan tartibda amalga oshirishda, qolaversa, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun innovatsion siyosat va milliy innovatsion tizimlarni takomillashtirishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Kitob oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiyot, menejment, innovatika bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari, o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va innovatsiyalar iqtisodiyoti masalalariga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, amaldagi davlat ta’lim standartlari va malaka talablari asosida tayyorlangan. Jarayonda mahalliy va xorijiy olimlarning sohaga oid o‘quv adabiyotlari, ilmiy materiallaridan keng foydalanilgan. Mavzular mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilingan bo‘lib, ularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish asosida talabada innovatsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida yetarlicha bilim hamda ko‘nikmalar shakllanadi.

Darslik o‘ziga xos sodda til va o‘quvchi ongiga chuqur singishga xizmat qiluvchi interfaol uslublarga tayanadi. Jumladan, mavzular bayonida dastlab unga doir savollar o‘rtaga tashlangan, keyin qisqacha sharhi berilgan. Nazariy bilimlar hayotiy misollar bilan mustahkamlangan. Mavzu savollari mahalliy va xorijiy tajribani hisobga olgan holda jadval va chizmalar yordamida batafsil yoritilgan. Har bir mavzu so‘ngida qisqacha xulosalar, olingan bilimlar mohiyatini yanada oydinlashtirish uchun savollar, shuningdek, mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Kitobda bir-birini to‘ldiruvchi mavzulardan so‘ng fan bo‘yicha olingan bilimlarni yanada mustahkamlash va tekshirib ko‘rish uchun turli murakkablik va ko‘rinishga ega test savollari majmui keltirib o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda, talabaning iqtisodiy lug‘atini boyitish maqsadida fanga oid asosiy tushuncha va atamalar lug‘ati tavsiya qilingan.

Mazkur darslik ba’zi juz’iy nuqsonlardan xoli bo‘lmasa-da, o‘quvchining iqtisodiy tafakkurini boyitishga, sohaga oid bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga hissa qo‘shadi.

Innovatsiya – taraqqiyot zamini. Innovatsion faoliyatni rivojlantirgan davlatlar texnologik yetakchilikni qo‘lga kiritibgina qolmay, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ijobiy dinamikasiga ham erishmoqda. O‘zbekistonning ham innovatsion rivojlanish bo‘yicha o‘ziga xos yo‘li xorijlik olimlar, soha ekspert va mutaxassislari tomonidan e’tirof etilyapti. Xususan, O‘zbekiston iqtisodiyoti Markaziy Osiyoda yagona mamlakat sifatida ilk marta 2020-yilda mashhur Global innovatsion indeksda 93-o‘rinni band qilgan edi. 2022-yilda 4 pog‘ona yuqorilab, 132 davlat orasida 82-o‘rinni egalladi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, jadal iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, 2030-yilgacha bo‘lgan muddatda O‘zbekistonni innovatsion jihatdan taraqqiy etgan kuchli elliktalik mamlakatlar qatoriga olib chiqish vazifalari belgilangan. Demak, yuksak marralar hali oldinda. Bu esa innovatsiyalarga muttasil ravishda jiddiy yondashuvni talab qiladi.

Shundan kelib chiqqan holda “Innovatsion iqtisodiyot” kitobida innovatsiyalar tabiati o‘rganilgani, iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilingani, uni yanada rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgani qo‘llanmaning qadr-qimmati va ahamiyatini yanada oshiradi.

**Qalandar ABDURAHMONOV,**
**akademik.**

## Tadbir

*Bo‘ka tumanidagi “Barkamol avlod” bolalar maktabida 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Mening armiyam – mening faxrim!” shiori ostida bayramona tadbir o‘tkazildi.*

# EL-YURT HIMOYASI – YUKSAK FAXR

Unda Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan milliy armiyamizni takomillashtirish, uning jangovar qobiliyati, mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar qatorida yoshlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasini yanada kuchaytirishga alohida urg‘u berilayotgani bejiz emasligi ta’kidlandi. Zero, Vatanni himoya qilish, uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash shu yurt farzandiman degan har bir inson uchun muqaddas burch. Bu vazifani esa qalbi vatanparvarlik tuyg‘usiga limmo-lim, fikri uyg‘oq, muayyan harbiy bilim va ko‘nikmalardan xabardor kishi munosib uddalaydi.

Tadbirda o‘quvchilarning “Mening armiyam – mening faxrim!” mavzuidagi eng yaxshi tasviriy san’at asari tanlovi ishtirokchilarining ko‘rgazmasi namoyish etildi. Teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari, Vatanni madh etgan go‘zal she’r va kuy-qo‘shiqlar yig‘ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Ota-onalar vatanparvarlik tarbiyasi oiladan, bog‘chadan, maktabdan boshlanishini, shu ma’noda, bunday tadbirlar yoshlarda milliy armiyamizga cheksiz hurmatni, el-yurt himoyasidagi alp yigitlarga nisbatan iftixorni tarbiyalashini qayd etdi.

**Gulchehra IBROHIMOVA,**
**Bo‘ka tumanidagi “Barkamol avlod” bolalar maktabi uslubchisi.**

# Dala chetlaridan unumli foydalangan yutadi

Qulaylik

*Prezidentning tegishli qaroriga muvofiq, dala chetlari hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko‘chalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha yangi tizim joriy etiladi.*

Birgina dala chetlaridan samarali foydalangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ichki fitosanitariya sertifikati bir yil davomida bepul beriladigan bo‘ldi.

Shuningdek, dala chetlariga ekilgan “In vitro” usulida yaratilgan mevali payvandtagli ko‘chatlarni sotib olish xarajatlarining 50 foizi miqdorida, biroq har bir mevali payvandtagli ko‘chatga 25 ming so‘mdan oshmagan holda Agrosanoatni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasidan belgilangan tartibda subsidiya ajratiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

# BIR OLMANING IKKI YUZI

*Jondor tumanidagi Oxshix mahallasida istiqomat qiluvchi Sobir Arabov tirikchilik vajidan ikki yilcha sovuq o‘lkalarga borib ishladi. Musofirlik mashaqqatlarini chekdi. Endi u kunlar yurtdoshimiz uchun o‘tmishga aylandi. U ayni damda mahalladagi “Najmiddin Komil” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mehnat qilmoqda.*

## Tahlil va taqqos

– Oilaviy korxonamiz mebel mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan, – deydi jamiyat rahbari Kamol Rahimov. – Uch nafar shogirdim bor. Buyog‘ini so‘rasangiz, oddiy duradgor usta edim. Davlatimiz yaratib berayotgan imkoniyatlardan foydalanib, faoliyatimizni kengaytirish fikri tug‘ildi. Ayniqsa, “Oxshix” kichik sanoat zonasining tashkil etilgani mahallamizning menga o‘xshagan duradgor ustalari uchun ayni muddao bo‘ldi. Mahallamiz mas’ullari qo‘llab-quvvatlashi bilan qisqa muddatda korxona ta’sis etib, mebel mahsulotlari tayyorlashga kirishdik. Bankdan ajratilgan 1 milliard 200 million so‘m mablag‘ evaziga zamonaviy dastgohlar xarid qildik. Ishlab chiqarish sexi binosini tikladik.

Aytish joizki, duradgorlik va mebelsozlik Oxshix mahallasining drayveri, ya’ni “o‘sish nuqtasi” sanaladi. Bu yerda azaldan shu hunarga mehr qo‘ygan, duradgorlik ortidan ro‘zg‘orini but, bozorni to‘kin etib kelayotgan sulolalarning davomchilari yashaydi. Ular sa’y-harakati bilan hududda “Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida aytsa arzigulik ishlar amalga oshirilmoqda. Hududda mebelsozlikka ixtisoslashtirilgan o‘nga yaqin yirik korxonalar faoliyat yuritmoqda. Mahalliy yoshlar tajribali ustalarga shogird tushib, stol-stul, shkaf, divan, kreslo, oshxona jihozlarini tayyorlash sir-asrorlarini o‘rganayotir. Yumshoq va qattiq mebellar buyurtma asosida qo‘shni viloyatlarga ham yetkazib berilmoqda. Korxonalarning jami yillik tovar aylanmasi 15 milliard so‘m atrofida. 40 turdagi mebel mahsulotlari ishlab chiqarilayotganining o‘ziyoq ko‘p narsani anglatadi.

Mahallada to‘rt mingga yaqin aholi istiqomat qilmoqda – 684 ta xonadon bor. Hududda xizmat ko‘rsatishning boshqa yo‘nalishlari ham rivojlanib borayotir. Bu hozir dolzarb sanalgan bandlik masalasiga yechim topish imkonini bermoqda.

– Men ham Sobir akaga o‘xshab Rossiyaga ishlagani borganman, – deydi mahalladagi “Intizor fayz mebel Buxoro” mas’uliyati cheklangan jamiyati ishchisi Fazliddin Hakimov. – Ketar chog‘imda qizcham olti oylik chaqaloq edi. Ikki yildan oshib, uyga qaytdim. Bu orada qizalog‘imning tili chiqibdi. Ammo mendan yotsirab, anchagacha ko‘nikolmadi. Hatto bir muddat “amaki” deb chaqirib yurdi. Men shunda uydan minglab chaqirim olisdaligimda farzandimga otalik mehru muhabbati yetishmaganini anglab, juda o‘ksindim. Hozir oilam davrasidaman. Bolalarim tarbiyasiga vaqt topyapman. Muhimi, qo‘limda hunarim bor. Xalqimiz “Qozonda bori cho‘michga chiqadi” deb bejiz aytmagan.

Fazliddindan farqli tarzda 25 yoshli Bobomurod Asadov xorijga ishlagani ketsammi-ketmasam, degan ikki o‘t orasida. Tumandagi Po‘loti mahallasida yashovchi bu yigit ikki oycha Rossiya Federatsiyasida ishladi, ammo oilaviy sababga ko‘ra uyga qaytishga majbur bo‘ldi. Bobomurodni mahalla binosida uchratib qoldik. Yordam puli umidida kelgan ekan.

– Ikki nafar farzandim bor, – deydi u. – Turmush o‘rtog‘im hech qayerda ishlamaydi. O‘zim duch kelgan ishni qilib, uch-to‘rt so‘m pul topaman. Chaqalog‘imizga kashani 187 ming so‘mga sotib olamiz. Uch kunga yetadi. Shuning o‘ziga bir oyda salkam ikki million so‘m ketadi. Otam, qarindosh-urug‘lardan ko‘mak olamiz. Shunday bo‘lsa-da, qarzim 6-7 million so‘mga borib qoldi. Ayni ishlaydigan paytim – orzu-havaslarim bor. Shularni o‘ylab, bahorda xorijga ishlagani ketsammikan, deb turibman.

Darvoqe, mahalla binosi ertalabdan odamlar bilan gavjumlashadi. Kimdir “bola puli”, kimdir moddiy yordam so‘rab kelgan, yana kimdir oilaviy nizo girdobiga tushib qolgan. Murojaatchilarning gap-so‘zlarini tinglab, hududda boqimandalik avjiga chiqqaniga amin bo‘lasiz.

Mahalladagi hokim yordamchisi Azizbek Rahmonovning ta’kidlashicha, ko‘plab fuqarolar ongida “Bir chetga chiqib ishlab kelishim kerak”, degan refleks hosil bo‘lgan. Aksariyati qo‘limda hunarim bormi, begona yurtda til bilmay qiynalib qolmaymanmi, degan savolni o‘ziga bermaydi. Oqibatda kutilmagan tashvishlar, muammolarga duch kelib, qiyin ahvolga tushadi.

Mahallada 2240 ta oila, jami 8 ming 360 kishi yashaydi. Mavsumiy ishlaydigan ikkita g‘isht zavodini hisobga olmasa, hududda yirikroq korxona ham yo‘q. Chog‘roq tikuv sexlari, issiqxonalar bor, ammo ular bilan bandlik masalasini hal etish mushkul. Daromadli ish topilmagach, mahalla fuqarolarining xorijga ish izlab ketishi odatiy holga aylangan. Deylik, 2024-yilgi mavsumda 871 kishi xorijga ishlagani jo‘nagan. To‘g‘ri, ularning aksariyati sovuq tushishi bilan ortiga qaytdi. Hozir uyda, oilasi bag‘rida. Ammo yashirib nima qildik, ko‘pchiligi ko‘klam kelishi, kunlar ilishini kutmoqda. Ularning yana o‘zga yurtlarga otlanishi ehtimoli katta.

– Hududimizda 14 – 30 yoshli 1 ming 701 nafar o‘g‘il-qiz bor, – deydi mahalla yoshlar yetakchisi Feruzbek Shonazarov. – Ularning asosiy qismi maktablarda, 325 nafari oliy o‘quv yurtlarida tahsil oladi. Xorijda ishlovchilar soni mavsum paytida 100 nafardan oshadi. Hozir ham 18 nafari chetda.

Qaytib kelganlar ayni paytda qanday ish bilan mashg‘ul? Ularning bandligi to‘liq ta’minlandimi? Bobomurodga o‘xshagan qo‘lida hunari bo‘lmagan yoshlarga kasb-hunar o‘rgatish ishlari qay ahvolda? Bugun-erta maktabni tugallab ishlamoqchi bo‘lgan o‘g‘il-qizlarga qanday ish o‘rinlari taklif etiladi? Afsuski, aholi, jumladan, yoshlar soni ko‘p hudud sanalgan Po‘lotida shu kabi savollarga javob olish mushkul.

Bir olmaning ikki yuzi bor, deganlaridek yuqorida aniq misol va tahlillar asosida keltirilgan mahallalarda holat ikki xil, ammo ishonchimiz komilki, tez orada Po‘loti mahallasida vaziyat o‘zgaradi.

Fikrimizcha, buning uchun bandlik masalasini hal etishda yaxshi natija ko‘rsatgan Oxshixga o‘xshagan mahallalar tajribasini obdan o‘rganish, aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borish, tadbirkorlikni rivojlantirish, 40 – 50 ish o‘rniga ega korxonalar barpo qilish zarur. Bunda “mahalla yettiligi”ga viloyat, tuman mas’ullarining, sohaga daxldor tashkilotlarning ko‘magi kerak bo‘ladi, albatta. Toki, oz emas-ko‘p emas, 8 mingdan ziyod aholi yashaydigan Po‘loti mahallasi har jihatdan namunali, ishsizlikdan xoli hududga aylansin!

**Istam IBROHIMOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

**Bugun O‘zbekiston Milliy kino san’ati saroyida huquq-tartibot idoralari xodimlari faoliyatiga bag‘ishlangan “Adolat” filmining premyerasi bo‘lib o‘tadi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-142. 12 620 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-8788

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 20.43 Topshirildi — 23.55 1 2 3 4 5 6